

## CHET TILLARINI RIVOJLANTIRISHDA MILLIY METODIKA VA TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

Valijonova Nafosatxon Otabek qizi

*Namangan davlat universiteti Ingliz filologiyasi fakulteti Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi XTA-AU-21 guruh talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada talim sohasida chet tillarini o'qitish va o'rganishda samarali va milliy metodik ahamiyati yuqori bo'lgan bir qancha usul va texnologiyalar haqida fikr va mulohazalardan iborat.*

**Kalit so'zlar:** *Interfaol metod, organayzer, texnologiya, audio lingual, shadowing, interaktiv, kommunikativ, gestures, self dramatizatsiya, tarjima nazariyasi.*

**Аннотация:** *В данной статье собраны мысли и мнения о нескольких методах и технологиях, которые являются эффективными и имеют высокую отечественную методическую значимость в преподавании и изучении иностранных языков в сфере образования.*

**Ключевые слова:** *Интерактивный метод, органайзер, технология, аудиолингвальный, дублирование, интерактив, коммуникативность, жесты, самодраматизация, теория перевода.*

**Abstract:** *This article contains thoughts and opinions about several methods and technologies that are effective and of high national methodological importance in teaching and learning foreign languages in the field of education.*

**Key words:** *Interactive method, organizer, technology, audio lingual, shadowing, interactive, communicative, gestures, self dramatization, translation theory.*

Bugungi kunda ilm-fan va texnika-texnologiyalar rivojlanayotgan makonda yashar ekanmiz, nafaqat, fan va texnologiya, shu bilan birgalikda, ularning olamshumul yutuqlarini butun dunyoda keng tarqalishida chet tillarini o'rni nechog'lik katta ekanligini ko'ramiz. Ta'limda chet tillarini o'qitish va uni boshqa sohalarga keng targ'ib qilish, til o'rganishni milliy qadriyat darajasiga ko'tarildi. An'anaviylikdan voz kechmagan holda yangi xorij tajribasiga asoslangan interfaol metodlarni til o'rganish jarayonida samarali qo'llanish, organayzerlar yordamida tashkillangan darslar o'quvchilarni mavzuni tezroq tushunishlariga yordam berdi." Til o'rganish kishilik jamiyatida bag'oyat muhim sohalardan hisoblanadi. Muloqot vositasi bo'lmish tilni tabiiy muhitda yoki uyushgan holda amaliy egallash mumkin. Til hodisalariga oid bilimlar esa nazariy jihatdan o'rganiladi. Xalqaro

munosabatlar avj olgan zamonamizda tillarni bilish, ayniqsa, ko'p tillilik ulkan ahamiyat kasb etmoqda

O'zbekiston Respublikasida tahsil oladigan o'quvchi va talabalar odatda uch tilni o'rganadilar. Ushbu tillar ta'lim nazariyasida maxsus nomlar bilan yuritiladi: ona tili, ikkinchi til va chet til. Qayd etilgan muhokamalardan ayon bo'ladiki, uchala til orasida chet tilni o'rgatish-o'rganish muayyan jihatlari bilan keskin farqlanadi. Bu esa, o'z navbatida, tegishli chet til o'qitish texnologiyasini qo'llashni taqozo etadi"[1]. Nazariy jihatdan yondashadigan bo'lsak, ona tilimizni o'rganishda qo'l keladigan turli xil usullar bo'lganidek jumladan harflab o'qish, bo'g'inlarga ajratib o'qish, tez o'qish, ifodali o'qish va hokazolar, xorijiy tillarni o'qitishda ham bir qator o'ziga xos metodlar mavjud.

1) "Grammatik tarjima metodi – an'anaviy metod ham deb ataladi. Bu metod g'arbda yashovchi odamlar Lotin va Yunon tilini o'rganmoqchi bo'lishganda paydo bo'lgan. Grammatik tarjima metodining asosi grammatik qoidalar, lug'atlarni eslab qolish va turli xil tuslanishlar va kelishiklar, matnlar tarjimasi va yozma mashqlarni bajarish bo'lgan.

2) To'g'ridan to'g'ri metodi. Bu metodning asosiy tamoyili ikkinchi tilni o'rganish hamxudi birinchi tilni o'rganish kabi bo'lishidir. Bu metod og'zaki munosabatlarni, ta'sirsiz tildan foydalanishni, birinchi va ikkinchi til orasida tarjimadan foydalanilmaslikni, grammatik qoidalarning tahlilidan biroz yoki umuman qochishni o'z ichiga oladi.

3) Kirishimli yoki kommunikativ til o'rgatish metodi. Til o'rganishning ko'plab metodlaridan biri bu - Kirishimli yoki kommunikativ til o'rgatish metodi hisoblanadi. Bu metodda o'rganuvchi markazda bo'ladi va ko'pincha muloqotga va hayotiy vaziyatlarga urg'u beriladi.

4) Audio-lingual metodi (armiya metodi, eshitish-og'zaki metodi yoki yangi kalit nomlari bilan ham ma'lum) shunday metodki, talabalar bunda tilni takrorlash, takrorlanuvchi birliklarni yoki kundalik ishlatiladigan dialoglarni mashqlar ketma-ketligi orqali takrorlab o'rganishadi. Audio lingua metodi 1950-1960 yillarda ta'limda ustuvorlik qilgan"[2].

Chet tillarini o'qitishning turli-tuman an'anaviy usullari ham mavjud. Ammo, jamiyat rivoji uchun qay biri ko'proq foydali va ijtimoiy hayotda samarali foydalanish imkoni mavjud bo'lsagina qo'llash mumkin. Azaldan qo'llab kelinayotgan metodlarning zerikarli bo'lib qolgani uchun ham kadrlarni yangi texnologiyalar bilan tanishtirib borish va dars mashg'ulotlari mobaynida ulardan samarali foydalanish talab etiladi. Bugungi kunda barcha til o'rganuvchilar uchun foydali bo'lib ulgurgan quyidagi metodik usullar ham milliy qadriyatlarimizga, ham jamiyat hayotiga mos va xosdir.

1. Shadowing uslubi.

Dars davomida o'quvchilar guruhlarga ajratilgani asnosida kelgusi dars uchun qisqa hajmdagi video, multfilm kabi multimedia vositalari o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga taqsimlab beriladi. Texnik baza yetarli bo'lmagan holatlarda, video matni tarqatmaviy materiallarda o'quvchilarga tushuntirilishi ham mumkin. Ular bajarishlari kerak bo'lgan vazifa shuki, imo-ishora (gestures)larni qo'llagan holda ana o'sha videoda qanday talaffuz qilingan bo'lsa, xuddi shunday talaffuz qilishlari kerak. Bu usul qisman "dramatizatsiya" ya'ni (ingliz tilida kichik sahna asarlarini jonlantirish)ga o'xshab ketsa-da juda ham samarali metodikalardan biri, chunki bu o'zaro eshitish va gapirish ko'nikmalarini o'stirishdan tashqari, o'uvchilarda "self-confidence" (o'ziga bo'lgan ishonch) tushunchasini oshirishga ham yordam beradi.

### 2. Interaktiv metodlar.

O'zaro guruhlarga bo'lingan o'quvchilarga taqdimotchi o'quvchi tomonidan tuzilgan savollar tarqatiladi va har bir guruh a'zolari o'tilgan darslarda egallagan bilimlari yuzasidan javob berishlari kerak. Bunda bevosita pedagog ya'ni dars o'qituvchi va o'quvchilar birgalikda faoliyat ko'rsatishlari talab qilinadi. Bu usulning muhim jihatlaridan biri shuki, o'quvchilarda boshqaruvchanlik va mustaqil fikrlash malakalarini yaxshilashga xizmat qiladi ya'ni o'quvchi ko'proq izlanish orqali birgalikda ishlash (collaboration) konsepsiyasini qabul qiladi.

### 3. One by one translation.

Bog'cha va maktab yoshida o'yin bolaning eng sevimli mashg'uloti hisoblanganligi sababli tillarni o'qitishda o'yinlarni qo'shiqlar hamohangligida tashkillashtirish yanada samarali yo'nalishlardan biridir. Boshlang'ich ta'limda tahsil oluvchi o'quvchilarning ko'pchiligiga ma'lum va mashhur bo'lgan "Rain, rain go away" va yoki "Brush, brush your teeth" kabi qo'shiqlardan chekingan holda ushbu metodik usul bolalarga milliy an'analarimiz asosida paydo bo'lgan qo'shiq va she'rlarni so'zma-so'z tarjima qilishni taqozo qiladi. Tarjimonlardan biror-bir tarjima borasida fikr so'ralganda bu ancha vaqt oluvchi sermashaqqat jarayon ekanligi haqida ta'kidlashadi. Mana shuning uchun ham tarjima nazariyasini har bir o'quvchi boshlang'ich sinflardayoq asta-sekin o'zlashtirib borishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, o'zgaralar tomonidan o'rganilmagan til tirik emas, u zamonlar osha o'rganilar ekan abadiy barhayot yashaydi, rivojlanadi, o'rganuvchilar tomonidan boyitiladi, sayqal topadi. Ana shunday tilni boy meros sifatida saqlab qolish uchun ham o'rganishni osonlashtirish uchun bir qancha metodik usullar tilshunoslar tomonidan tadbiiq etib kelinmoqda. Ularning jamiyat hayotida qay darajada ahamiyatli va foydali

ekanligiga qarab chet tili o'qitish va o'rgatish metodikasi doirasiga kiritilgan va shiddat bilan rivojlanayotgan texnologik vositalar har bir til o'rganuvchining ishini oson qilyapti desak, adashmaymiz.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Lamol Jalolov."Chet til o'qitish metodikasi" ."O'qituvchi".Toshkent 2012. 3-bet
2. <https://wordlyknowledge.uz/index.php/iqro/article/download/1643/2304/1833>  
Chet tili o'qitishning metodikasi va nazariyasi. Xaliqulov Inoyat Bahromovich
3. Xoshimov O., Yoqubov I. Ingliz tili o'qitish metodikasi. T., - 2003
4. Bekmuratova U.B. "Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" mavzusida referat. 2014.
5. <http://www.my.gov.uz>.
6. [w.w.w.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi
7. [w.w.w.wikipedia.uz](http://www.wikipedia.uz)